JOURNALFLEDU.COM
Foreign Languages in Uzbekistan

Scientific Electronic Journal "Foreign Languages in Uzbekistan", 2026, vol. 12, No 5 (70), pp. 269–292
https://journalfledu.com
ISSN: 2181-8215 (online)

THE LITERARY FUNCTIONS OF NARRATIVE STRUCTURE, EPIGRAPHS AND PARATEXT IN NEAL ASHER'S SCIENCE FICTION NOVEL SERIES

Munira Zohidjon qizi Umarqulova

PhD Student, Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan
mumarqulova774@gmail.com
https://orcid.org/0009-0009-9648-2684
https://doi.org/10.36078/1794220090

(received: September 13, 2026; revised: October 17, 2026; accepted: October 20, 2026)

Abstract. The article examines the composition of nine novels by the British writer Neal Asher, all set in his Polity universe. The corpus includes the Agent Cormac pentalogy, its prequel "Shadow of the Scorpion", and the Spatterjay trilogy. Critics have mostly associated Asher with fast-paced plots and battle scenes, while the inner structure of his novels has not yet been studied. This gap defines the relevance of the study. The aim of the article is to identify the compositional system of the novels and to reveal its artistic functions. The analysis draws on G. Genette's theory of paratext, B. Uspensky's concept of point of view and Y. Lotman's ideas on the frame. The working term "chapter threshold" is proposed. Five types of chapter threshold are identified. These are the in-world epigraph, the framing fairy tale, the ecological vignette, the bestiary entry and the absence of a threshold. All 113 epigraphs found in five novels are attributed to invented authors, and they act as a "chronicle of the future" that looks back on events from a later time. The main novelty of the article lies in showing how, across the Spatterjay trilogy, the chapter threshold moves step by step from the diegesis into the paratext. The article also discusses frame and ring composition, multi-strand plots, the alien point of view and the compositional role of narrative tense. It concludes that composition is Asher's main instrument of world-building. It gives the invented future historical depth and binds separate novels into a coherent series.

Keywords: composition; epigraph; paratext; chapter threshold; frame; novel series; Neal Asher.

NIL ESHER ILMIY-FANTASTIK TURKUM ROMANLARIDA KOMPOZITSIYA, EPIGRAF VA PARATEKSTNING BADIIY VAZIFALARI

Munira Zohidjon qizi Umarqulova

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Tayanch doktorant
Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya. Maqolada britaniyalik yozuvchi Nil Esherning Polity olamiga mansub to‘qqiz romani kompozitsiya nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqot materialini Agent Kormak haqidagi pentalogiya, unga boshlang‘ich tushuntiruvchi asar bo‘lgan “Shadow of the Scorpion” romani va “Spatterjay” trilogiyasi tashkil etadi. Esher ijodi adabiyotshunoslikda asosan keskin voqealarga boy syujet va jangovar sahnalar bilan bog‘lab o‘rganilgan, romanlarining ichki qurilishi esa hozirgacha maxsus tadqiq etilmagan. Mavzuning dolzarbligi shu bilan belgilanadi. Ishning maqsadi yozuvchi romanlaridagi kompozitsion tizimni aniqlash va uning badiiy vazifalarini ochib berishdan iborat. Tahlil J. Jenettning paratekst nazariyasi, B. Uspenskiyning nuqtayi nazar haqidagi va Y. Lotmanning badiiy asar yaxlitligi va sarhadlari haqidagi qarashlariga tayanadi. Tadqiqotda “bobning kompozitsion chegarasi” taklif etilib, boblarning boshlanishiga ko‘ra besh turi aniqlandi. Bular epigraf bilan boshlanuvchi bob, qoliplovchi ertak, tabiat tasviri, ensiklopedik ma’lumot bilan boshlanuvchi bob va kirish qismiga ega bo‘lmagan bob. Besh romanda uchraydigan 113 ta epigrafning barchasi uydirma mualliflarga tegishli bo‘lib, ular voqealarga kelajakdan turib qaraydigan “kelajak solnomasi” vazifasini bajarishi ko‘rsatildi. Maqolaning asosiy yangiligi “Spatterjay” trilogiyasida boblarning kirish qismlari dastlab syujet bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, keyinchalik undan mustaqil shaklga o‘tishini aniqlashdan iborat. Shuningdek, ramkali va halqasimon kompozitsiya, ko‘p chiziqli syujet, begona mavjudot nuqtayi nazari va hikoya zamonining kompozitsion vazifasi tahlil qilindi. Xulosada Esher romanlarida kompozitsiya olam yaratishning asosiy vositasi ekani va turli romanlarni yaxlit turkumga birlashtirishi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: kompozitsiya; epigraf; paratekst; bob muqaddimasi; ramka; turkum roman; Nil Esher.

Kirish

XX asrning so‘nggi o‘n yilligi va XXI asr boshlarida Britaniya ilmiy fantastikasida kechgan yangilanish jarayoni jahon adabiyotshunosligida “British Boom” atamasi bilan qayd etildi. Britaniyalik olim Endryu Batler mazkur hodisaning ko‘p qirrali manzarasini tasvirlar ekan, yangi avlod yozuvchilari qatorida Nil Esher nomini ham tilga oladi [Butler, 2003]. Bu e‘tirofning o‘zi muhim, chunki Esher ijodi tanqidchilikda hanuzgacha kam tilga olinadigan yozuvchilar sirasiga kiradi. Jozef Normanning Ieyn Benks kosmik operalariga bag‘ishlangan tadqiqotida Esher inson umrini radikal uzaytirish g‘oyasiga tayanuvchi “yangi kosmik opera” mualliflari orasida bir marta eslab o‘tiladi, xolos [Norman, 2017: 128]. Devid Xartvell va Ketrin Kramer esa kosmik operaning qayta tug‘ilishini butun janr miqyosida sharhlab, bu jarayonni faqat britaniyalik mualliflarga nisbat berishga shubha bilan qaraydi [Hartwell, Cramer 2006]. Ko‘rinib turibdiki,

Esher ijodi asosan umumiy kontekst doirasida, janr taraqqiyotining bir namunasi sifatida tadqiqotchilar nigohiga tushadi.

Ilmiy fantastikaga oid tadqiqotlarning aksariyati mavzu va g‘oya masalalariga, jumladan, postinsonparvarlik, sun‘iy intellekt, utopiya va distopiya muammolariga yo‘naltirilgan. Asar qurilishi, ya‘ni kompozitsiya esa ko‘pincha ikkinchi darajali masala sifatida qoladi. Esher romanlariga nisbatan bu holat yanada yaqqolroq ko‘zga tashlanadi. Yozuvchining shuhrati asosan keskin voqealarga boy syujet, jangovar sahnalar va g‘ayrioddiy mavjudotlar tasviri bilan bog‘lanadi. “Gridlinked” romanining nashriyot sahifalarida keltirilgan taqrizlardan birida asar hatto “Tarantino yozgan ilmiy-fantastik Bond” deb ta‘riflanadi [Asher, 2001]. Bunday baho kitobxon talqinining muhim bir qirrasini aks ettiradi. Shu bilan birga, u romanlarning murakkab ichki tuzilishini e’tibordan chetda qoldiradi. Tezkor voqealar zanjiri ortida esa puxta o‘ylangan kompozitsion tizim yashiringan bo‘lib, uni aniqlash uchun asarning chekka qismlariga, ya‘ni bob muqaddimalari, prolog va epiloglar, qoliplovchi hikoyalar va asar olamiga tegishli hujjatlarga diqqat bilan nazar tashlash talab etiladi. Yozuvchi “Politiya’ deb nomlangan kelajakdagi hayot tasvirlangan yigirmadan ortiq roman yaratgan va ularning katta qismi roman turkumlarga birlashadi. Mazkur maqolada ulardan to‘qqiztasi tahlilga tortiladi, bular Agent Kormak haqidagi besh romandan iborat pentalogiya (2001–2008), unga dastlabki tushuntiruvchi vazifasini o‘taydigan “Shadow of the Scorpion” (2008) romani hamda “Spatterjay” trilogiyasidir (2002–2009). Turkum shaklida yaratilgan olam kompozitsiyani ikki sathda o‘rganishni taqozo etadi. Birinchi sath alohida romanning ichki qurilishi bo‘lsa, ikkinchisi romanlar orasidagi aloqalar tizimidir. Amerikalik tadqiqotchi Mark Vulf ikkilamchi olamlar nazariyasini ishlab chiqar ekan, bir necha asar bo‘ylab harakatlanuvchi personajlar [Wolf, 2012: 66], asarlararo aloqalar [Wolf, 2012: 205] va keyingi asarlarda oldingi voqealarning qayta talqin etilishi [Wolf, 2012: 212] kabi hodisalarni alohida tadqiq obyekti sifatida belgilaydi. Esher turkumlari bu hodisalarning barchasini o‘zida mujassam etgan. Turkum kompozitsiyasining yana bir jihati yechim muammosiga borib taqaladi. Y. Lotman seriya tarzida davom ettiriladigan roman va kinofilmlarni tahlil qilar ekan, ularning mualliflari kitobxonga yoqib qolgan qahramonni “o‘ldirishga” jur‘at eta olmasligini yoki birinchi asarlarning tijoriy muvaffaqiyatidan foydalanishga intilishini qayd etadi [Lotman, 1998: 208]. Bunday asarlarda muqaddima qat‘iy belgilangan, yechim esa ochiq qoladi. Ularning yechimlari keyingi kitobga ochilgan eshik vazifasini o‘taydi, biroq har bir roman o‘z ichida mustaqil badiiy yaxlitlikka ega. Kompozitsiya nazariyasida ushbu muammoga turlicha yondashuvlar mavjud. Rus olimi Boris Uspenskiy nuqtayi nazar masalasini

kompozitsiyaning markaziy muammosi deb biladi va asar tuzilishini hikoya olib boriladigan pozitsiyalar tizimi sifatida ta‘riflaydi [Uspenskiy, 2000: 9]. Yuriy Lotman kompozitsiyani syujet unsurlarining o‘zaro bog‘liq holda tashkil etilishi deb tushuntiradi [Lotman, 1998: 203]. Fransuz olimi Jerar Jenett esa asar matnini o‘rab turuvchi sarlavha, so‘zboshi, epigraf va izohlarni paratekst tushunchasi ostida birlashtirib, uni asar bilan olam o‘rtasidagi “ostona” deb ataydi [Genette, 1997: 1–2]. Ilmiy fantastikada bu ostona alohida ahamiyat kasb etadi. Mavjud bo‘lmagan olamni kitobxonga tanishtirish ehtiyoji yozuvchini asosiy hikoyadan tashqaridagi izohlovchi matnlarga murojaat qilishga undaydi. Karl Fridman ilmiy fantastikaning kognitiv salohiyatini aynan uning romanga xos dialogik va tarixiy tabiati bilan bog‘lab ko‘rsatadi [Freedman, 2000: 74–77]. Demak, janrning o‘ziga xosligi uning kompozitsion imkoniyatlari bilan chambarchas bog‘liq.

O‘zbek adabiyotshunosligida kompozitsiya tushunchasi nazariy jihatdan puxta ishlangan. A. Ulug‘ov badiiy asar kompozitsiyasini asar qismlarining yaxlit badiiy maqsad ijrosi uchun joylashtirilishi sifatida ko‘radi hamda epigraf, asarning muqaddimasi va tugallanishi masalalariga alohida to‘xtaladi [Ulug‘ov, 2017: 39; 54–55]. Fantastik adabiyot ham milliy tadqiqotlar doirasidan chetda qolmagan. U. Ko‘chimov fantastik asarlarda real va fantastik personajlar ruhiyatini tasvirlash usullari turli badiiy vazifalarni bajarishini ochib bergan [Ko‘chimov, 2024: 13–14]. S. Begmatova Kadzuo Isiguro romanlarida retrospektiv syujetni tahlil qilib, B. To‘rayevaning retrospeksiya shakllari haqidagi tasnifini qayd etadi, ularning orasida epigraf ham bor [Begmatova, 2025: 131]. Biroq bizga ma‘lum manbalarda Nil Esher asarlarining kompozitsion xususiyatlari maxsus tadqiq obyekti bo‘lmagan. Mavzuning dolzarbligi shu bilan belgilanadi.

Maqolaning maqsadi Nil Esherning to‘qqiz romanidagi kompozitsion tizimni aniqlash va uning badiiy vazifalarini ochib berishdan iborat. Shuningdek, syujet chiziqlarining tuzilishi, ramkali va halqasimon kompozitsiyasi hamda retrospektiv qurilish shakllarini tahlil qilish ko‘zda tutiladi. Esher turkumlarida bob ostonalari izchil rivojlanib boruvchi kompozitsion tamoyil bo‘lib, u badiiy olamning tarixiy qatlamlarini chuqurlashtiradi va turkumning kompozitsion yaxlitligini ta‘minlaydi.

Nazariy qism

Kompozitsiya tushunchasi adabiyotshunoslikda asar qismlarini yaxlit badiiy maqsad doirasida bo‘ysundirish san‘ati sifatida talqin etiladi. O‘zbek olimi K. Hamroyev asar kompozitsiyasi o‘z vazifasini faqat poetik obraz bilan semantik-struktur munosabatda to‘la oqlashini ta‘kidlaydi [Hamroyev, 2023: 6]. Olim sarlavha, epigraf, prolog, qistirma epizod,

peyzaj, portret va detal kabi unsurlarni badiiy obraz tabiatini belgilovchi komponentlar qatorida sanaydi [Hamroyev, 2023: 8]. I. Rajabova esa syujet va kompozitsiyani badiiy asarning poetik butunligini ta‘minlovchi asosiy omillardan biri deb biladi [Rajabova, 2023: 15]. Bu qarashlarda muhim umumiylik ko‘zga tashlanadi. Kompozitsiya faqat voqealar izchilligi bilan cheklanmaydi, balki asardagi unsurlarni ham qamrab oladi va ular badiiy yaxlitlikka bevosita xizmat qiladi. Asar chegarasi masalasi Y. Lotman tadqiqotlarida nazariy jihatdan chuqur asoslangan. Olimning fikricha, adabiy asar ramkasi ikki unsurdan, ya‘ni muqaddima va yechimdan tarkib topadi [Lotman, 1998: 206]. Zamonaviy hikoyada bu unsurlar turli vazifalarni bajaradi. Muqaddima kitobxonga matn qaysi badiiy til va janr qonunlari asosida yaratilganini ma‘lum qiladi, yechim esa syujetni tugallab, uni butun olam modeliga aylantiradi [Lotman, 1998: 210]. Turkum romanlar esa bu kuzatishda yangi mazmun kasb etadi. Turkumdagi har bir bob, har bir roman va butun sikl o‘z muqaddimasi va yechimiga ega bo‘lib, ular bir-birining bilan uzviy bog‘langan. Uspenskiy ham ushbu masalaga atroflicha to‘xtaladi. Olim asar chegaralarida nuqtayi nazar tashqi va ichki pozitsiyalar o‘rtasida almashishini ramkaning formal belgisi sifatida ko‘rsatadi [Uspenskiy, 2000: 234]. Qoliplovchi matnning asosiy asar matniga nisbatan shartliroq bo‘lishi ham uning kuzatishlari qatoriga kiradi [Uspenskiy, 2000: 264–266]. Asar ichidagi asar hodisasi ham shu nazariy doirada ko‘rib chiqiladi [Uspenskiy, 2000: 249]. Nuqtayi nazar konsepsiyasining yana bir jihati tadqiqotimiz uchun alohida ahamiyatga ega. Uspenskiy asardagi turli qismlarining turli personajlar nuqtayi nazaridan berilishi mumkinligini ko‘rsatadi va bir-biriga bo‘ysunmaydigan teng huquqli nuqtayi nazarlar mavjud bo‘lgan asarni polifonik asar deb ataydi [Uspenskiy, 2000: 25]. Psixologik nuqtayi nazarning navbatma-navbat almashishi ham kompozitsiyaning maxsus usuli sifatida tavsiflanadi [Uspenskiy, 2000: 152]. Ko‘p chiziqli syujet aynan shu usulga tayanib ish ko‘radi.

Asar chegarasidagi unsurlar J. Jenettning paratekst nazariyasida tizimli tahlil qilingan. Olim har bir paratekst unsurini aniqlash uchun uning joylashuvi, paydo bo‘lish vaqti, mavjudlik shakli, jo‘natuvchisi va qabul qiluvchisi hamda vazifasini belgilash zarur deb hisoblaydi [Genette, 1997: 4]. Kitob ichidagi paratekst peritekst, kitobdan tashqaridagisi esa epitekst deb ataladi [Genette, 1997: 5]. Epigrafga Jenett alohida bob bag‘ishlab, har bir bobni epigraf bilan boshlash an‘anasi nasrga gotik roman orqali kirib kelganligini ta’kidlaydi. Enn Radklif, Metyu Lyuis va Charlz Metyurin romanlarida har bir bob epigrafga ega, bu an‘anani Valter Skott davom ettiradi [Genette, 1997: 147–148]. E‘tiborli jihati shundaki, Skott o‘z epigraflarining ko‘pini o‘zi to‘qib chiqarganini ochiq tan olgan [Genette. 1997: 147]. Jenett epigraf uydirma muallifga ham nisbat berilishi

mumkinligini qayd etadi va misol sifatida Skott Fitsjeraldning “Buyuk Getsbi” romanini keltiradi, uning epigrafi yozuvchining oldingi asaridagi personajga tegishli [Genette, 1997: 151–152]. Shunday qilib, fantastik janrlar bilan epigraf o‘rtasidagi aloqa tarixiy ildizlarga ega. Jenett epigrafning to‘rt vazifasini ajratadi. Epigraf sarlavhani izohlashi, matn mazmunini sharhlashi, iqtibos olingan muallif nomi orqali bilvosita madad berishi mumkin. To‘rtinchi vazifani olim “epigraf effekti” deb ataydi, bunda epigraf mavjudligining o‘zi asar davri, janri va ruhini belgilaydi [Genette, 1997: 156–160]. Asarni sharhlovchi epigrafning ma‘nosi ko‘pincha butun kitob o‘qib chiqilgandan keyingina oydinlashadi [Genette 1997: 157–158]. Asar oxiriga qo‘yilgan epigraf alohida maqomga ega. U “oxirgi so‘z”, xulosa yoki ibrat vazifasini o‘taydi [Genette, 1997: 149]. Olim uydirma izohlar haqida gapirar ekan, ularni bilvosita asarning ajralmas qismi deb hisoblaydi [Genette, 1997: 342]. Kitob oxirida o‘ylab topilgan bibliografiya, xarita yoki ensiklopedik ma’lumotlar beriladigan badiiy asarlar ham Jenett nazaridan chetda qolmagan [Genette, 1997: 404]. Epigrafning badiiy vazifalari esa keyingi tadqiqotlarda aniqlashtirib berilgan. Jumladan, nemis adabiyotshunosi Eyke Kronshage Jorj Eliotning “Daniel Deronda” romanidagi epigraflarni tahlil qilib, ularning prolepsis vazifasiga e‘tibor qaratadi. Epigraf keyingi syujetning ayrim unsurlarini, personajlarning xususiyatlarini, mavzu qatlamlarini va hatto asarning strategiyalarini oldindan ko‘rsatib berishi mumkin [Kronshage, 2014: 249]. Olim epigraflar leytmotiv kabi turli syujet unsurlarini yaxlitlikka birlashtirishini ham ta‘kidlaydi [Kronshage, 2014: 238]. Epigraf bilan bob o‘rtasida dialektik munosabat yuzaga keladi, ulardan biri “ruh” vazifasini bajarsa, ikkinchisi “jism” vazifasini o‘taydi va har biri o‘z holicha to‘liq ma’no anglata olmaydi [Kronshage, 2014: 251].

Fantastik adabiyotdagi epigraflar yanada murakkab tabiatga ega. Stefan Ekman va Odri Teylor xayoliy dunyo ichidagi manbaga nisbat berilgan epigraflarni yetarlicha o‘rganib, ularni olam yaratishning muhim vositasi sifatida baholaydi [Ekman & Taylor, 2021: 248]. Tadqiqotchilar bunday epigraflarning to‘rt vazifasini ko‘rsatadi. Birinchidan, har qanday epigraf muayyan kayfiyat yaratadi, xuddi simfoniyadan oldingi ilk akkord kabi [Ekman & Taylor, 2021: 249]. Ikkinchidan, u epigraf matni, nisbat berilgan manba yoki ularning uyg‘unligi orqali olam haqida yangi tafsilotlar qo‘shadi [Ekman & Taylor, 2021: 251]. Uchinchidan, turli manbalar olamni turli ovozlar orqali tasvirlaydi, mualliflar bu hodisani “polyverse” deb ataydi [Ekman & Taylor, 2021: 254]. To‘rtinchidan, bunday epigraflar ikki xil tabiatga ega. Ular paratekst va intertekst taassurotini uyg‘otadi, aslida esa asarning bir qismi hisoblanib, ikkilamchi olam paratekstga “sizib kiradi” [Ekman & Taylor, 2021: 258]. Bu kuzatish Jenettning uydirma izohlar haqidagi fikri bilan hamohang desak mubolag‘a

bo‘lmaydi. Mazkur tadqiqotchilar olam va hikoya munosabatini ham alohida tahlil qilishgan. Ularning fikricha, ikkilamchi olamlar odatda muayyan hikoya talablariga moslab yaratiladi, biroq olamning ayrim tafsilotlari syujetga hech qanday ta’sir ko‘rsatmaydi va faqat o‘qish zavqini oshiradi [Ekman & Taylor, 2016: 9]. Piter fon Stakelberg va Aleks Makdauell boy hikoya olamlari bitta hikoya doirasidan chiqib, kengroq voqelikni belgilovchi batafsil qoidalar tizimini yaratishini qayd etadi [von Stackelberg & McDowell, 2015: 25]. Eliza Kraatila esa spekulyativ fantastika kitobxon izchil tizim sifatida talqin etadigan keng ko‘lamli xayoliy manzaralar yaratishini ta’kidlaydi [Kraatila, 2023: 29]. Xayoliy dunyoni tizim sifatida taqdim etishning eng qulay vositasi esa olam ichidagi hujjatlar, ya’ni ensiklopediya, qo‘llanma va ma’ruza parchalari hisoblanadi.

Ilmiy fantastik adabiyotda kompozitsiya masalasi begona ong tasviri bilan ham bog‘liq. Elana Gomel Stanislav Lemning fikrlariga tayanib, aql egasi bo‘lgan, ammo mutlaqo inson bo‘lmagan mavjudotni qanday tasvirlash mumkin, degan savolni janrning markaziy muammosi sifatida qo‘yadi [Gomel, 2014: 3]. Pol Metyus begona mavjudot ko‘pincha aql bilan to‘liq anglab bo‘lmaydigan, sirli “numinoz” hodisa sifatida tasvirlanishini ko‘rsatadi [Matthews, 2023: 45]. Bunday mavjudotni hikoyachi nuqtayi nazariga aylantirish kompozitsion jihatdan jasoratli qadamdir. U. Ko‘chimov fantastik asarlarda real va fantastik personajlar ruhiyatini tasvirlashning bir xil usullari turli vazifalarni bajarishini ko‘rsatadi. Fantastik personajning ichki dunyosi ko‘pincha kitobxonni ishontirish va voqelikni “tashqi” nuqtadan baholash vositasiga aylanadi [Ko‘chimov, 2024: 13–14]. Retrospektiv kompozitsiya masalasida o‘zbek adabiyotshunosligida muhim kuzatishlar mavjud. S. Begmatova B. To‘rayevaning nazarlariga tayanib, zamonaviy romanda retrospeksiyaning xotira, hikoya, rivoyat, afsona va epigraf shakllari mavjudligini qayd etadi [Begmatova, 2025: 131]. Tadqiqotchi retrospektiv syujetni voqea-hodisalarni qahramon nuqtayi nazaridan tahlil qilish va baholash maqsadida o‘tmishga nazar tashlash sifatida ta‘riflaydi [Begmatova, 2025: 150–151]. Bu tasnifda epigrafning retrospeksiya shakllari qatorida ko‘rsatilishi tadqiqotimiz uchun muhim ahamiyatga ega.

Yuqoridagi nazariy qarashlarni umumlashtirib, tadqiqotda “bob muqaddimasi” tushunchasidan foydalanamiz. Bu tushuncha Jenettning ostona haqidagi va Lotmanning ramka haqidagi qarashlarini bob darajasiga ko‘chiradi. Bob muqaddimasi deganda har bir bob boshida asosiy hikoyadan oldin keladigan va u bilan turlicha munosabatga kirishadigan kichik matn bo‘lagi nazarda tutiladi. U epigraf, qoliplovchi hikoya,

syujetdan tashqari lavha yoki olam ichidagi hujjat shaklida bo‘lishi mumkin.

Material va metodologiya

Tadqiqot materiali sifatida Nil Esherning Polity olamiga mansub to‘qqiz romani tanlab olindi. Agent Kormak pentalogiyasi “Gridlinked” (2001), “The Line of Polity” (2003), “Brass Man” (2005), “Polity Agent” (2006) va “Line War” (2008) romanlaridan iborat. Unga “Shadow of the Scorpion” (2008) prekveli qo‘shiladi. Spatterjay trilogiyasini esa “The Skinner” (2002), “The Voyage of the Sable Keech” (2006) va “Orbus” (2009) romanlari tashkil etadi. Korpusning umumiy hajmi 188 bob va 3677 sahifani tashkil qiladi. Romanlar ingliz tilidagi asl nusxada o‘rganildi. Iqtiboslardagi sahifa raqamlari tadqiqotda foydalanilgan elektron nashrlarga tegishli, misollar kursivda beriladi, ularning o‘zbekcha tarjimasi maqola muallifiga tegishli. Korpusni tanlashda ikki mezon asos qilib olindi. Birinchi mezon turkumlilik bo‘lib, har ikki guruh romanlari umumiy personajlar, umumiy olam va izchil voqealar zanjiri bilan bog‘langan. Ikkinchi mezon qiyoslash imkoniyatidir. Pentalogiya va trilogiya bir olam doirasida, deyarli bir davrda yaratilgan, biroq kompozitsion jihatdan turlicha yo‘l tutadi. Prekvel (dastlabki roman) esa bu ikki guruh o‘rtasida o‘ziga xos nazorat namunasi vazifasini bajaradi, chunki uning qurilishi qolgan romanlardan keskin farq qiladi.

Tadqiqotda bir necha usul uyg‘unlikda qo‘llandi. Asosiy usul struktur-semiotik tahlildir. U Y. Lotmanning ramka, muqaddima va yechim haqidagi qarashlariga tayanadi hamda asarni o‘zaro bog‘liq unsurlar tizimi sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi. Narratologik tahlil B. Uspenskiyning nuqtayi nazar tipologiyasi va J. Jenettning paratekst nazariyasi asosida olib borildi. Uning yordamida bob muqaddimalari, prolog va epiloglar, qistirma hikoyalar hamda hikoyachi pozitsiyasining almashinuvi o‘rganildi. Qiyosiy-tipologik usul to‘qqiz romanda uchraydigan kompozitsion vositalarni tasniflash va ularning turkumlar bo‘ylab o‘zgarishini kuzatish uchun qo‘llandi.

Tahlil birligi sifatida nazariy qismda belgilangan bob muqaddimasi olindi. Uni asosiy hikoyadan ajratish uchun to‘rt belgiga tayanildi. Birinchisi grafik ajratilganlik, ya‘ni bo‘lakning asosiy matndan alohida blok yoki maxsus belgi bilan ajratilishi. Ikkinchisi nisbat berish satrining mavjudligi, bunda bo‘lak ostida olam ichidagi kitob, nutq yoki muallif nomi ko‘rsatiladi. Uchinchisi hikoya ovozining o‘zgarishi, masalan, voqealar ishtirokchisi o‘rnida ensiklopedist, ma‘ruzachi yoki noma‘lum tarixchining so‘zlashi. To‘rtinchisi esa bo‘lakda asosiy syujet qahramonlarining ishtirok etmasligi yoki ularning boshqa, masalan, afsonaviy maqomda tilga

olinishidir. Kamida ikki belgi mavjud bo‘lgan matn bo‘lagi bob muqaddimasi sifatida qayd etildi.

Badiiy asarni sinchiklab o‘qish miqdoriy tahlil bilan to‘ldirildi. Adabiyotshunoslikda bunday yondashuv hali keng tarqalmagan bo‘lsa-da, kompozitsion qonuniyatlarni aniqlashda u ishonchli dalil beradi. Tahlil to‘rt bosqichda amalga oshirildi. Dastlab har bir romandagi boblar chegarasi aniqlanib, har bir bob boshidagi matn bo‘lagining turi qayd etildi. Keyingi bosqichda epigraflar ajratib olinib, ular nisbat berilgan olam ichidagi manbalar bo‘yicha guruhlandi va sanab chiqildi. Uchinchi bosqichda syujet chiziqlari aniqlandi. Buning uchun xatboshilarda kelgan personaj ismlari qayd etildi, so‘ngra bu ma‘lumotlar matnni o‘qish orqali tekshirildi. To‘rtinchi bosqichda hikoya zamonini aniqlash maqsadida muallif nutqida qo‘llangan “said” va “says” shakllari sanaldi. Bu ikki shakl ingliz badiiy nasrida o‘tgan va hozirgi zamondagi hikoyani farqlovchi eng barqaror belgi hisoblanadi. Miqdoriy natijalar o‘z holicha xulosa bo‘la olmaydi. Ular faqat matn tahlili bilan birga ma‘no kasb etadi. Shu sababli har bir raqamli ko‘rsatkich aniq badiiy misol bilan asoslandi, har bir misol esa nazariy tushunchalar bilan bog‘lab talqin qilindi. Tahlil jarayonida ayrim cheklovlar ham hisobga olindi. “The Line of Polity” romanining elektron nashrida bir qator bob sarlavhalari saqlanmagan, shu bois bu romandagi boblar soni qoliplovchi hikoya bo‘laklari asosida aniqlandi. Syujet chiziqlarining almashinish nuqtalari ham bir-ikki sahifalik farq bilan belgilangan bo‘lishi mumkin. Biroq bu farqlar tadqiqotning asosiy xulosalariga ta‘sir ko‘rsatmaydi.

Tadqiqot natijalari

Tahlil natijasida Nil Esher romanlarida bob muqaddimasining besh turi aniqlandi. Bular olam ichidagi manbaga nisbat berilgan epigraf, qoliplovchi ertak, syujetdan tashqari tabiat tasviri, ensiklopediya maqolasi va ostonaning umuman yo‘qligidir. Ularning korpus bo‘ylab taqsimlanishi 1-jadvalda aks etgan.

1-jadval

Nil Esher romanlarida bob muqaddimasining turlari

Roman	Boblar soni	Bob muqaddimasi turi	Muqaddimali boblar	Hikoya zamoni
Gridlinked (2001)	29	bob debochasi sifatida keltirilgan epigraf	27	o‘tgan
The Line of Polity (2003)	20	qoliplovchi ertak	20	o‘tgan

Brass Man (2005)	24	bob debochasi sifatida keltirilgan epigraf	24	o‘tgan
Polity Agent (2006)	20	bob debochasi sifatida keltirilgan epigraf	21 (prolog bilan)	o‘tgan
Line War (2008)	20	bob debochasi sifatida keltirilgan epigraf	20	o‘tgan
Shadow of the Scorpion (2008)	14	mavjud emas	0	o‘tgan
The Skinner (2002)	20	tabiat tasviri	20	o‘tgan
The Voyage of the Sable Keech (2006)	21	ensiklopediya maqolasi	21	o‘tgan
Orbus (2009)	20	epigraf va yechim	21	hozirgi

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, to‘qqiz romanning sakkiztasida bob muqaddimasi tizimli ravishda qo‘llangan. Bu tasodif emas, balki yozuvchi uslubining barqaror belgisidir. Shu bilan birga, debocha romandan romanga o‘zgarib boradi.

Bob debochasi sifatida keltirilgan epigraflar. Besh romanda jami 113 ta epigraf aniqlandi. Ularning birortasi ham real muallifga nisbat berilmagan. Eng ko‘p takrorlanadigan manba Gordon ismli olam ichidagi tarixchining “How It Is” kitobi bo‘lib, undan 43 ta epigraf olingan. Ikkinchi o‘rinda “insonlar tomonidan tuzilgan” deb ta‘riflangan “Quince Guide” qo‘llanmasi turadi, u 37 marta keltiriladi. Qolgan epigraflar “Weapons Directory” qurollar ma‘lumotnomasi, EBS Heinlein ismli olimaning “Modern Warfare” ma‘ruzalari, Jobsworth ismli siyosatchining nutqlari va noma‘lum muallif matnlari o‘rtasida taqsimlanadi. “Gridlinked” romanida epigraf manbalari ayniqsa rang-barang. Ular orasida moda jurnali, qahva kompaniyasining reklama matni, krionika korporatsiyasining katalogi va Ashanta Gorian ismli olimning “An Introduction to Skaidon Formulae” darsligi ham bor [Asher, 2001: 270].

Epigraflarning birinchi va oddiy vazifasi ekspozitsiyadir. Pentalogiyaning ilk bobi “runcible”, ya‘ni bir zumda masofa bosib o‘tish qurilmasi haqidagi tushuntirish bilan ochiladi. “*Of course you can’t understand it. You’re used*

to thinking in a linear manner, that's evolution for you" ("Albatta, siz buni tushuna olmaysiz. Siz qolipli fikrlashga o'rgangansiz, evolyutsiya shuni taqozo etgan") [Asher, 2001: 13]. Bu jumlada ikki muhim belgi bor. Birinchisi kitobxonga to'g'ridan-to'g'ri murojaat, ikkinchisi esa kitobxonni olam ichidagi, ancha rivojlangan jamiyat vakilidan quyiroq pozitsiyaga qo'yuvchi ohang. Shunday qilib, birinchi sahifadanoq kitobxon va olam o'rtasida muayyan masofa belgilanadi. Xuddi shu vazifani "Golem Series" maqolasi [Asher, 2001: 214], haiman tushunchasining ta'rifi [Asher 2006a: 48] va spatterjay virusi haqidagi epigraf [Asher, 2009: 4] ham bajaradi. Ikkinchi vazifa turkum xotirasini saqlash bilan bog'liq. "Brass Man" romanining o'n ikkinchi bobi oldingi ikki romanda tasvirlangan voqealarni ilmiy xulosa tarzida umumlashtiruvchi epigraf bilan boshlanadi. "*Evidently, Dragon is a supreme bio-engineer with abilities that exceed those of all present Polity Ais"* ("Ko'rinib turibdiki, Dragon Politydagi barcha mavjud sun'iy intellektlardan ustun qobiliyatlarga ega oliy darajadagi bio-muhandisdir") [Asher, 2005: 220]. Bu yerda epigraf voqealarning qisqacha bayonini emas, balki ular haqidagi olam ichidagi ilmiy fikrni taqdim etadi. "Gridlinked" va "The Line of Polity" romanlarining syujeti shu tarzda xayoliy dunyo haqidagi ilmiy tasavvurlarni shakllantiradi. Uchinchi vazifa o'ziga xos. "Line War" romanida epigraf roviysi romanning o'z qahramonlarini afsona personajlari sifatida tilga oladi. Romanning birinchi epigrafi Politiya chegarasidagi urushlar haqida so'z yuritib, shunday tugaydi. "*Perhaps these are just myths, urban legends, persistent memes to titillate the masses. Or perhaps they are something else* ... "("Ehtimol, bular shunchaki miflar, shahar afsonalari, olomonni qitiqlash uchun to'qilgan barqaror memlardir. Balki ular butunlay boshqa narsadir…") [Asher, 2008a: 2]. Kitobxon aynan shu "mish-mish" haqidagi romanni qo'lida tutib turgan bo'ladi. Oradan o'n olti bob o'tib, noma'lum muallif pentalogiyaning markaziy personajlaridan biri haqida shunday yozadi. "*We have the legendary immortal Horace Blegg, who is the Wandering Jew, Hermes the messenger of the gods… or sometimes Zeus in the role of deus ex machina"* ("Bizda afsonaviy o'lmas Horas Blegg bor, u Sargardon yahudiy ham, xudolar elchisi Germes ham… ba'zan esa deus ex machina rolidagi Zevs hamdir") [Asher, 2008a: 348]. Keyingi bobda xuddi shunday baho Mr Crane obraziga beriladi. "*He is our modern version of the god of doors, for he is Janus"* ("U eshiklar xudosining bizning davrdagi ko'rinishi, chunki u Yanusdir") [Asher, 2008a: 370]. Bu misollar muhim kompozitsion natijani ko'rsatadi. Epigraflar voqealardan ancha keyingi davrdan turib yozilgan va syujetni oldindan tarix, hatto mif sifatida ramkaga soladi. Asosiy hikoyada Blegg hali ham sirli va qudratli shaxs bo'lsa, bob muqaddimasida u allaqachon mifologik obrazga aylangan. Ikki vaqt qatlami bir sahifada yonma-yon turadi. To'rtinchi vazifani fosh qilishga tayyorlov

deb atash mumkin. “Line War” romanining so‘nggi bobi Yer Markaziy sun‘iy intellekti qanday qilib oliy hokimiyatga ega bo‘lgani haqidagi epigraf bilan ochiladi. “*The buck would therefore always stop at that cubic building in which Earth Central resided on the shores of Lake Geneva*” (“Shu sababli barcha mas‘uliyat oxir-oqibat Jeneva ko‘li sohilidagi Yer Markazi joylashgan o‘sha kub shaklidagi binoda to‘xtardi”) [Asher 2008a: 408]. Biroq shu zahotiyoq ikkinchi epigraf keladi va Gordon bu fikrga qarshi chiqadi. “*The above is a dubious contention at best… I’d rather not say which story I believe”* (“Yuqoridagi fikr juda shubhali… Qaysi hikoyaga ishonishimni aytmay qo‘ya qolay”) [Asher 2008a: 408]. Bir ostonada ikki olam ichidagi muallif bahslashadi va Yer Markazining kelib chiqishi ochiq savol sifatida qoladi. Sakkiz sahifadan keyin pentalogiyaning eng katta siri ochiladi. Horas Blegg inson emas, balki Yer Markazining o‘zi yaratgan vosita ekan. “*Through a series of Horace Bleggs, I developed the technology”* (“Bir тусреф Horas Bleglar orqali men bu texnologiyani yaratdim”) [Asher, 2008a: 416]. Epigraflardagi bahs aynan shu fosh qilishga zamin hozirlaydi. Kitobxon tarixchilar javob topa olmagan savolga syujet orqali javob oladi. Beshinchi vazifa matnning o‘ziga ishora qiluvchi sharhdir. “Orbus” romanining kulminatsion bobi oldidan qo‘yilgan epigraf syujet qurilishi haqida bevosita mulohaza yuritadi. “*…it is convenient for major events in fiction to tip on some pivotal moment, for instance for Gollum to bite the finger off Frodo… reality is rarely like tha”* (“Badiiy asarda muhim voqealarning biror hal qiluvchi lahzaga, masalan, Gollumning Frodo barmog‘ini tishlab uzib olishiga bog‘liq bo‘lishi qulay bo‘lsa-da… hayotda bu kamdan-kam yuz beradi”) [Asher, 2009: 317]. Epigraf muallifi keyin shunday xulosa chiqaradi. “*Our stories do not pivot on one point but on thousands of them”* (“Bizning hikoyalarimiz bitta nuqtada emas, minglab nuqtalarda burilish yasaydi”) [Asher, 2009: 317]. Romanning so‘nggi sahifalarida uch syujet chizig‘i aynan bitta hal qiluvchi lahzada emas, bir qator ketma-ket to‘qnashuvlarda tutashadi [Asher, 2009: 344–345]. Shu tarzda bob muqaddimasi kitobxonni kompozitsion yechimga nazariy jihatdan tayyorlaydi. Nihoyat, “Orbus” romani syujetdan keyin qo‘yilgan xotimaviy epigraf bilan tugaydi. “*The Fourth Kingdom: The events that led to King Vrell’s rise to power are obscure at best, but everything he did afterwards has been well documented”* (“To‘rtinchi Qirollik. Qirol Vrellning hokimiyatga kelishiga sabab bo‘lgan voqealar juda noaniq, biroq uning keyingi faoliyati yaxshi hujjatlashtirilgan”) [Asher, 2009: 345]. Roman qahramoni ochiq yechimda endigina kelajagiga qadam qo‘yadi, epigraf esa uning kelajagini allaqachon tarix sifatida bayon qiladi.

Qoliplovchi ertak. “The Line of Polity” romanida epigraf yo‘q, uning o‘rnini ichki hikoya egallaydi. Romanning deyarli har bir bobi ismi aytilmagan ayolning o‘g‘liga interaktiv rasmli kitobdan Masada sayyorasi

ertaklarini o‘qib berishi bilan boshlanadi. Birinchi bob shunday ochiladi. “*With the small blond child balanced on her knee the woman managed the awkward task of one-handedly turning a page of the picture book”* (“Tizzasida o‘tirgan kichkina sarg‘ish bolani ushlab turgan ayol bir qo‘li bilan rasmli kitob sahifasini varaqlashdek noqulay ishni uddaladi”) [Asher, 2003: 8]. Bunday lavhalar romanda 20 marta takrorlanadi. Ertaklar dastlab bolalar hikoyalariga o‘xshaydi, biroq asta-sekin qo‘rqinchli tus oladi. Ayolning o‘zi kitob haqida shunday xulosaga keladi. “*This picture book was definitely now out of the realm of Disney and into that of some psychotic relative of the brothers Grimm”* (“Bu rasmli kitob endi Disney olamidan chiqib, aka-uka Grimmlarning qandaydir ruhiy xasta qarindoshi olamiga o‘tib bo‘lgan edi”) [Asher, 2003: 380]. Yigirma besh sahifadan keyin kitob asosiy syujet olamidan xabar beradi. “*The picture had taken on depth a 3-D effect. She pressed her finger against the page and it felt cold”* (“Rasm chuqurlik kasb etgandi, u uch o‘lchamli bo‘lib qolgan edi. Ayol barmog‘ini sahifaga bosdi, sahifa sovuq edi”) [Asher, 2003: 405]. Ramka epilogda buziladi. Ertak o‘qigan ayol endi tirik emas. “*A woman danced in space, surrounded by diaphanous white material”* (“Ayol oppoq shaffof mato ichida ochiq koinotda raqsga tushardi”) [Asher, 2003: 509]. Endi bolaning yonida kumush sochli erkak o‘tiradi [Asher, 2003: 509]. U o‘tgan voqealarni “Kadm g‘alabasi”, ya‘ni g‘olibning o‘zi ham halok bo‘ladigan g‘alaba deb ataydi [Asher, 2003: 510], so‘ngra yangi ertakni boshlaydi. “*Once upon a time... on a planet far far away... there lived a Dragon ...”* (“Bir bor ekan, bir yo‘q ekan… uzoq-uzoq sayyorada… bir Ajdar yashagan ekan…”) [Asher, 2003: 510]. Shunday qilib, ichki hikoya va asosiy syujet oxirida o‘rin almashadi. Asosiy syujetning qahramoni bo‘lgan Dragon ertak qahramoniga aylanadi.

Tabiat tasvirlari zanjiri. “The Skinner” romanining yigirma bobi ham asosiy syujetdan oldin keladigan qisqa lavha bilan boshlanadi. Bu lavhalarda odamlar ishtirok etmaydi, ularning qahramonlari Spatterjay sayyorasi okeanidagi jonzotlardir. Birinchi lavha shunday boshlanadi. “*In any living sea on any world there are always creatures whose fate is integral to the gastronomic delight of other . . . creatures”* (“Har qanday olamdagi har qanday tirik dengizda taqdiri boshqa… jonzotlarning ishtahasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan jonzotlar doimo mavjud”) [Asher, 2002: 2]. Tahlil shuni ko‘rsatdiki, bu lavhalar alohida-alohida qismlar emas. Ular yigirma qismdan iborat yagona hikoyani tashkil etadi. Ovchi va o‘lja o‘rin almashib boradi, zanjir esa mayda baliqlaridan, mollyuskalar, glister qisqichbaqalari orqali ulkan zuluk va molly carpgacha ko‘tariladi. Muallif bu tamoyilni ikkinchi lavhadayoq kinoya bilan ifodalaydi. “*Of course, there is no such thing as a free lunch - someone is keeping a tab”* (“Albatta, tekin tushlik degan narsa yo‘q, kimdir hisobni yuritib boradi”) [Asher, 2002: 28].

Oxirgi lavhada molly carp ulkan zulukni halok qiladi va uning tanasiga eng avval yana boxy baliqlari keladi. "*First to come were the boxies"* ("Birinchi bo'lib boksilar keldi") [Asher, 2002: 530]. Ulardan keyin frog whelk, hammer whelk, turbul va glister yana paydo bo'ladi. Oxirgi lavha butun zanjirni teskari tartibda takrorlab, birinchi bobga qaytadi va halqa kompozitsiyasini yuzaga keltiradi.

Ensiklopedik maqolalari. Trilogiyaning ikkinchi romani "The Voyage of the Sable Keech"da ostona yana o'zgaradi. Har bir bob muallifi ko'rsatilmagan ensiklopediyadan olingan maqola bilan boshlanadi. Maqolalar sarlavhali bo'lib, ularda "The Skinner" romanidagi zanjirning o'sha jonzotlari ilmiy uslubda tasvirlanadi. Bu yerda muhim kompozitsion detal kuzatiladi. Maqola gap o'rtasida uziladi va asosiy hikoya aynan shu nuqtadan boshlanadi. Birinchi bobdagi maqola "*such as the turbul"* – ("masalan, turbul -") so'zlari bilan tugaydi va keyingi satrda qahramon Ambel paydo bo'ladi [Asher, 2006b: 19]. Ikkinchi bobdagi maqola ham "*their much larger kin: Whelkus titanicus"* – ("ancha yirik qarindoshlari Whelkus titanicus -") so'zlari bilan uzilib qoladi [Asher 2006b: 32]. Ensiklopediya o'z gapini tugatmaydi, balki uni hikoyaga uzatadi. Trilogiyaning ichki yaxlitligini bir personaj ham ta'minlaydi. "The Voyage of the Sable Keech" romanining prologi Prador irqiga mansub Vrell nuqtayi nazaridan beriladi [Asher, 2006b: 3]. Epilogda esa u keyingi romanning qahramoni sifatida tanishtiriladi. *Meet Vrell* ("Tanishing, bu Vrell") [Asher, 2006b: 410].

Ko'p chiziqli syujet va begona fokalizator. Tahlil pentalogiyada syujet chiziqlarining izchil ko'payib borishini ko'rsatdi. "Gridlinked" romanida ikki asosiy chiziq, ya'ni agent Kormak va uni ta'qib qiluvchi Pelter guruhi chizig'i navbatma-navbat almashadi. "Polity Agent" romanida ularning soni oltitadan oshadi. Birgina dastlabki ellik sahifada hikoya Seledon stansiyasi, Kormak, Sorn, Orlandin va Blegg nuqtayi nazarlari o'rtasida yetti marta ko'chadi. "Line War" romanida esa o'ndan ortiq chiziq mavjud bo'lib, ularning ayrimlari bir-ikki sahifalik epizoddan iborat. "Orbus" romanida uch asosiy chiziq bor. Ularning biri odam bo'lmagan mavjudot, Prador irqiga mansub Vrell nuqtayi nazaridan beriladi. "*Vrell's crime was simply one of genetics… the King considers him too dangerous to live. The King is right"* ("Vrellning aybi faqat genetikada edi… Qirol uni yashash uchun o'ta xavfli deb hisoblaydi. Qirol haq") [Asher 2009: 16]. So'nggi qisqa gap Vrellning o'z ongidan kelgan erkin ko'chirma nutqdir. Begona mavjudot kitobxonga ichkaridan ko'rsatiladi. Bundan tashqari, "Orbus" butunlay hozirgi zamonda yozilgan. Romanda muallif nutqida "says" shakli 225 marta, "said" shakli esa bir marta qo'llangan. "The Skinner" romanida "said" 739 marta, "The Voyage of the Sable Keech" romanida 321 marta

uchraydi, “says” esa bu ikki romanda birorta ham yo‘q. Pentalogiya romanlarida ham “says” shakli uchramaydi.

Ramka, qistirma hikoya va retrospeksiya. “Gridlinked” romani olam ichidagi sana bilan belgilangan prolog bilan boshlanadi [Asher, 2001: 7]. Asosiy voqealar Samarkand sayyorasidagi runsibl halokati atrofida quriladi. Epilogda hikoya yana Samarkandga qaytadi, sayyora orbitasida endi *Dragon remains* (“Dragon qoldiqlari”) aylanib yuradi [Asher, 2001: 366]. Roman o‘rtasida esa qistirma hikoya bor. Kormak ko‘p yillar avval Dragon bilan bo‘lgan ilk uchrashuvi haqida hikoya qiladi. Qistirma hikoya “*And Cormac remembered, and he told her”* (“Va Kormak esladi, unga hikoya qilib berdi”) jumlasi bilan ochiladi [Asher, 2001: 141] va “*It was a story he had told no human”* (“Bu uning hech bir insonga aytmagan hikoyasi edi”) jumlasi bilan yopiladi [Asher, 2001: 153]. Hikoya boshida va oxirida qavs ichida olam ichidagi sanalar ko‘rsatilgan. “Shadow of the Scorpion” romani korpusdagi yagona epigrafsiz roman. Uning boblari boshqa tamoyil asosida qurilgan. Deyarli har bir bob ikki qismdan iborat. Avval yosh Kormakning bolaligi tasvirlanadi, so‘ngra yulduzcha belgilari bilan ajratilgan qismda uning askarlik yillari hikoya qilinadi. Romanda bunday chegara o‘n ikki marta uchraydi. O‘n birinchi bobda bu qolip kutilmaganda buziladi. Kitobxon bolalik epizodi deb o‘qigan qism aslida katta Kormak ongiga qayta yuklangan, bir vaqtlar o‘chirib tashlangan xotira bo‘lib chiqadi. “*This was not a memory of his childhood, rather the memory of very recent experience. And it did not fit because it was out-of-sequence and he was no child”* (“Bu uning bolalik xotirasi emas, balki yaqinda boshidan kechirgan tajribasi xotirasi edi. U o‘rniga tushmasdi, chunki ketma-ketlikdan tashqarida edi, o‘zi esa endi bola emasdi”) [Asher, 2008b: 179]. Keyingi sahifada qahramon o‘chirilgan xotiralarni “bob” deb ataydi. “*What, he wondered, would the other two chapters of excised memories contain?”* (“O‘chirilgan xotiralarning qolgan ikki bobida nima bor ekan, deb o‘yladi u”) [Asher, 2008b: 180]. Roman otasining qabri ustidagi sahna bilan tugaydi. “*This was completion, an ending to a story and the beginning of another”* (“Bu yechim edi, bir hikoyaning oxiri va boshqasining muqaddimasi”) [Asher, 2008b: 248]. Pentalogiyaning yechimi ham vaqt bilan bog‘liq. “Line War” romanining so‘nggi sahifalarida voqealar ikki yuz yil oldinga sakraydi. “*But a mere two hundred years had passed’* (“Biroq bor-yo‘g‘i ikki yuz yil o‘tgan edi”) [Asher, 2008a: 419]. Romandagi so‘nggi suhbatda Dragon Orlandinga uning kelajakdagi vazifasi haqida gapiradi. “*The numinous thing you will build will be the future of the Polity”* (“Sen quradigan ilohiy narsa Politiyaning kelajagi bo‘ladi”) [Asher, 2008a: 422]. Bu jumla “Polity Agent” romanining yechimiga javob beradi, u yerda Orlandine o‘zi uchun *something . . . numinous* (“qandaydir… ilohiy narsa”) yaratishni rejalashtirgan edi [Asher, 2006a: 346].

Natijalar muhokamasi

Olingan natijalar tadqiqotimizning farazini tasdiqlaydi. Nil Esher romanlarida bob muqaddimasi kompozitsion tamoyil vazifasini bajaradi. Bu tamoyil to‘qqiz romanning sakkiztasida izchil qo‘llangan, yagona istisno esa, quyida ko‘rsatilganidek, o‘z mantiqiga ega.

Avvalo, Esher epigraflarining tarixiy ildiziga to‘xtalish lozim. J. Jenett har bir bobni epigraf bilan boshlash an‘anasi gotik romandan kelib chiqqanini va Valter Skott epigraflarining ko‘pini o‘zi to‘qiganini qayd etgan edi [Genette, 1997: 147–148]. Skott uchun uydirma epigraf yashirin o‘yin bo‘lib qolgan, uning kitobxoni bu satrlarni qandaydir eski qo‘shiq yoki pyesadan olingan deb o‘ylagan. Esher esa o‘yinni ochiqchasiga o‘ynaydi. Uning epigraflari ham to‘qib chiqarilgan, biroq ular real adabiyotga emas, xayoliy dunyoning kutubxonasiga nisbat beriladi. Natijada epigraf muallifi, uning kitobi va kitobxoni ham badiiy olamga tegishli bo‘lib qoladi. Jenett uydirma izohlarni asar bir butunligininging bir qismi deb hisoblaganidek [Genette, 1997: 342], Esher epigraflari ham paratekst ko‘rinishidagi matn sifatida namoyon bo‘ladi. S. Ekman va O. Teylorning ikkilamchi olam paratekstga “sizib kiradi” degan xulosasi [Ekman & Taylor, 2021: 258] bu holatni aniq ifodalaydi. Tadqiqotchilar ta‘riflagan “polyverse” hodisasi, ya‘ni olamning turli ovozlar orqali tasvirlanishi [Ekman & Taylor, 2021: 254] Esher romanlarida ayniqsa yorqin ko‘rinadi. Gordon, Quince Guide mualliflari, Heinlein va anonim muallif bir voqeaga turli pozitsiyadan qaraydi. “Line War” romanining so‘nggi bobidagi qo‘sh epigraf bu jarayonning cho‘qqisidir. Bir ostonada ikki olam ichidagi mualliflar bir-biriga e’tiroz bildiradi va kitobxon tarixshunoslik bahsining guvohiga aylanadi. Bizningcha, bu Esher olamining eng muhim xususiyatlaridan birini ko‘rsatadi. Polity olami yagona, rasmiy haqiqatga ega emas. Uning tarixi hali yozilayotgan, bahs talab qiladigan tarixdir. E. Kronshage epigrafning prolepsis vazifasini, ya‘ni keyingi voqealarni oldindan ko‘rsatish qobiliyatini alohida ta‘kidlagan edi [Kronshage, 2014: 249]. Esher romanlarida bu vazifa kutilmagan tus oladi. Jorj Eliotning epigrafi keyingi bob voqeasiga ishora qilsa, Esher epigrafi voqealarning uzoq kelajakdagi talqinini beradi. Blegg haqidagi “Line War” epigrafi uni afsonaviy obraz sifatida tasvirlaganida, kitobxon hali Bleggning asl mohiyatidan bexabar bo‘ladi. Fosh qilish sahnasidan keyin epigrafning ma‘nosi to‘liq ochiladi. Jenett matnni sharhlovchi epigrafning ma‘nosi ko‘pincha kitob oxirida oydinlashishini yozgan edi [Genette, 1997: 157–158]. Esher bu kuzatishni kompozitsion strategiyaga aylantiradi. Kronshage ta’riflagan epigraf va bob o‘rtasidagi “ruh” va “jism” munosabati [Kronshage 2014: 251] Esherda vaqt munosabatiga ham aylanadi. Bob hozirgi zamonni, epigraf esa kelajakdan qaralgan o‘tmishni ifodalaydi. Shu

nuqtada S. Begmatova tasnifiga murojaat qilish o‘rinli. Tadqiqotchi epigrafni retrospeksiya shakllari qatorida ko‘rsatadi [Begmatova, 2025: 131]. Esher epigraflarini ham retrospeksiya deb atash mumkin, biroq bu o‘ziga xos retrospeksiyadir. Uning nuqtasi o‘tmishda emas, kelajakda turadi. Kitobxon voqealarni ular yuz berayotgan paytda kuzatadi va ayni vaqtda ular haqida yozilgan kelajak tarixini o‘qiydi. Buni shartli ravishda “kelajak solnomasi” deb atash mumkin. Bu usul ilmiy fantastikaning tarixiylikka intilishi bilan bevosita bog‘liq. K. Fridman janrning kognitiv salohiyatini aynan uning tarixiy tabiatida ko‘radi [Freedman, 2000: 74–77]. Esher epigraflari uydirma kelajakni tarixiy hujjatlar bilan ta’minlab, bu salohiyatni kompozitsiya darajasida badiiy tasvirlab beradi.

Tadqiqotning muhim natijasi Spatterjay trilogiyasiga tegishli. Bu turkumda bob muqaddimasi uch bosqichda o‘zgaradi. “The Skinner” romanida ostona hali diegezis ichida joylashgan. Tabiat tasvirlarini asosiy hikoyachi bayon qiladi, ularda voqea bor va bu voqealar romanning ichki olamida yuz beradi. “The Voyage of the Sable Keech” romanida ostona yarim paratekstga aylanadi. Ensiklopediya maqolasi alohida janrga ega va hikoyachidan ajralgan, biroq u gap o‘rtasida uzilib, asosiy hikoyaga ulanib ketadi. Maqola va hikoya o‘rtasidagi chegara hali to‘liq qat‘iylashmagan. “Orbus” romanida esa ostona to‘liq paratekstga o‘tadi. Epigraflar aniq manbaga nisbat beriladi, asosiy hikoyadan grafik jihatdan ajratiladi va syujetdan keyin qo‘yilgan xotimaviy epigraf bilan to‘ldiriladi. Shunday qilib, trilogiya ostonaning diegezisdan paratekstga ko‘chish jarayonini bosqichma-bosqich namoyon etadi. Bu jarayonni tasodifiy deb bo‘lmaydi. “Orbus” trilogiyaning yakunlovchi romani bo‘lish bilan birga, Spatterjay olamini pentalogiya olami bilan birlashtiruvchi asardir. Unda Polity va Prador o‘rtasidagi urush mavzusi, pentalogiyadagi manbalar va pentalogiyadagi epigraf shakli qaytadi. Boshqacha aytganda, trilogiya pentalogiya tomon siljiydi va bu siljish, avvalo, kompozitsiyada ko‘rinadi. M. Vulf ikkilamchi olamlar nazariyasida asarlararo aloqalarni alohida tadqiq obyekti sifatida belgilaydi [Wolf, 2012: 205]. Esher misolida bu aloqalar personajlar va voqealardagina emas, kompozitsion shakllarda ham namoyon bo‘ladi. Vrellning “The Voyage of the Sable Keech” epilogidan “Orbus” romaniga o‘tishi Vulf ta‘riflagan bir necha asar bo‘ylab harakatlanuvchi personaj hodisasining [Wolf, 2012: 66] aniq namunasidir. Horas Bleggning “Line War” romanida qayta talqin etilishi esa keyingi asarda oldingi voqealarning qayta ma‘no kasb etishiga [Wolf, 2012: 212] misol bo‘la oladi. “The Voyage of the Sable Keech” romanidagi ensiklopediya maqolalari yana bir nazariy masalani ko‘taradi. S. Ekman va O. Teylor olamning ayrim tafsilotlari syujetga ta‘sir ko‘rsatmay, faqat o‘qish zavqini oshirishini yozgan edi [Ekman & Taylor, 2016: 9]. Esher ensiklopedik maqoalalari ilk qarashda ana shunday tafsilotlar yig‘indisiga

o‘xshaydi. Biroq maqolaning gap o‘rtasida uzilishi ularni syujet bilan bog‘laydi. Bundan tashqari, bu maqolalarda tasvirlangan jonzotlar “The Skinner” romanidagi ekologik zanjirning o‘zidir. Demak, bir romanda hikoya qilingan narsa keyingi romanda ilmiy bilimga aylanadi. P. fon Stakelberg va A. Makdauell qayd etgan hikoya doirasidan chiquvchi qoidalar tizimi [von Stackelberg & McDowell, 2015: 25]. Esherda aynan shu yo‘l bilan shakllanadi. E. Kraatila ta‘kidlagan kitobxon izchil tizim sifatida talqin etadigan manzara [Kraatila, 2023: 29] ham bob ostonalari orqali quriladi.

Ramka masalasida olingan natijalar B. Uspenskiy kuzatishlari bilan to‘liq mos keladi. Olim asar chegaralarida nuqtayi nazar tashqi va ichki pozitsiyalar o‘rtasida almashishini ko‘rsatgan edi [Uspenskiy, 2000: 234]. Esherning deyarli barcha romanlarida bob boshida tashqi, olam ichidagi tarixchi yoki ensiklopedist pozitsiyasi, keyin esa personajning ichki pozitsiyasi beriladi. Uspenskiy qoliplovchi matnning shartliroq tabiatini ham qayd etgan [Uspenskiy, 2000: 264–266]. “The Line of Polity” romanidagi ertak ramkasi bunga yaqqol misol. Ertak shartli, stilizatsiya qilingan matn, asosiy syujet esa realistik uslubda yozilgan. Epilogda bu ikki qatlam o‘rin almashadi va asosiy syujet qahramoni Dragon ertak personajiga aylanadi. Asar ichidagi asar hodisasi [Uspenskiy, 2000: 249] bu yerda teskari yo‘nalishda ishlaydi. Y. Lotman yakuniy syujetni tugallab, uni olam modeliga aylantirishini yozgan edi [Lotman, 1998: 210]. Olim seriya asarlarining yechimi ochiq qolishini ham ta‘kidlagan [Lotman 1998: 208]. Esher romanlarining yechimlari bu ikki qarashni birlashtiradi. “Shadow of the Scorpion” romanidagi “*an ending to a story and the beginning of another”* (“bir hikoyaning oxiri va boshqasining muqaddimasi”) [Asher, 2008: 248] jumlasi deyarli Lotman kuzatishining badiiy ifodasidir. Prekvel yechimlanadi, biroq u pentalogiyaning birinchi romaniga ochilgan eshik bo‘lib qoladi. “Line War” romanidagi ikki yuz yillik sakrash esa pentalogiyani yopadi va ayni vaqtda Politiyaning kelajagiga yo‘l ochadi. “Orbus” xotimaviy epigrafi ham syujetni tugallaydi va qahramonning kelajagini tarix sifatida taqdim etadi. Jenett asar oxiridagi epigrafni “oxirgi so‘z” deb atagan edi [Genette, 1997: 149]. Esherda bu oxirgi so‘z syujetni yakunlamaydi, balki uni kelajakka ochadi.

“Shadow of the Scorpion” romanidagi epigraflarning yo‘qligi ham izoh talab qiladi. Bu roman korpusdagi yagona o‘smirlik va shakllanish haqidagi asardir. Uning markazida olamning tarixi emas, bir insonning xotirasi turadi. Shuning uchun kelajakdan turib yozilgan epigraf o‘rniga bu yerda xotira bo‘laklari kompozitsion birlik vazifasini bajaradi. S. Begmatova retrospektiv syujetni qahramon nuqtayi nazaridan o‘tmishga nazar tashlash deb ta‘riflagan edi [Begmatova, 2025: 150–151]. Esher prekvelida bu nazar

texnologik xususiyat kasb etadi. Xotira qahramon ongiga qayta yuklanadi va hatto “bob” deb ataladi. Shunday qilib, epigrafning yo‘qligi ostona tamoyilini inkor etmaydi. Aksincha, bu romanda ostona vazifasini xotira o‘z zimmasiga oladi.

Ko‘p chiziqli syujet masalasida natijalar pentalogiyada kompozitsiyaning tobora polifonik tus olishini ko‘rsatadi. B. Uspenskiy bir-biriga bo‘ysunmaydigan teng huquqli nuqtayi nazarlar mavjud bo‘lgan asarni polifonik asar deb atagan edi [Uspenskiy, 2000: 25]. “Gridlinked” romanida hali bosh qahramon va uning raqibi syujet tarmoqlari ustunlik qilsa, “Line War” romanida o‘ndan ortiq teng huquqli chiziq yuzaga keladi. Nuqtayi nazarning navbatma-navbat almashishi [Uspenskiy, 2000: 152] Esher romanlarining asosiy kompozitsion uslubiga aylanadi. Bu jarayon Polity olamining kengayishi bilan uyg‘un. Olam kengaygan sari uni bir personaj nigohi orqali ko‘rsatish imkoni kamayib boradi.

Begona ong tasviri alohida e‘tiborga loyiq. E. Gomel aql egasi bo‘lgan, ammo inson bo‘lmagan mavjudotni tasvirlashni ilmiy fantastikaning markaziy muammosi deb biladi [Gomel, 2014: 3]. Esher bu muammoni kompozitsion yo‘l bilan hal qiladi. “Orbus” romanida Vrell nuqtayi nazari boshqa chiziqlar bilan teng huquqli bo‘lib, begona mavjudotning ruhiyati ko‘rsatiladi. U. Ko‘chimov fantastik personajning ichki dunyosi voqelikni “tashqi” nuqtadan baholash vositasiga aylanishini yozgan edi [Ko‘chimov, 2024: 13–14]. Vrell nigohi ham inson dunyosini tashqi nuqtadan ko‘rsatadi. P. Metyus begona mavjudot ko‘pincha “numinoz”, ya‘ni aql bilan to‘liq anglab bo‘lmaydigan hodisa sifatida tasvirlanishini ko‘rsatgan edi [Matthews, 2023: 45]. Qizig‘i shundaki, Esherda bu so‘z pentalogiyaning ikki romani yechimida takrorlanadi va begona mavjudotga emas, inson yaratadigan kelajakka nisbat beriladi. Numinoz narsa tashqaridan kelmaydi, uni Orlandin quradi. Bu detal pentalogiya yechimining g‘oyaviy yo‘nalishini ko‘rsatadi. “Orbus” romanidagi hozirgi zamon ham kompozitsion jihatdan asoslangan. Roman hozirgi zamonda yozilgan va syujetdan keyin o‘tgan zamondagi xotimaviy epigraf bilan tugaydi. Hikoya zamoni va epigraf zamoni o‘rtasidagi bu farq bizning fikrimizcha ataylab yaratilgan. Kitobxon Vrellning hokimiyatga kelishini “ayni zamonda” kuzatadi, epigraf esa shu voqeani tarixga aylantiradi. Hozirgi zamon qahramonlar va kitobxonni voqealar markaziga qo‘yadi, epigraf esa ularni tarixiy masofaga uzoqlashtiradi. Bu ikki pozitsiya o‘rtasidagi keskinlik trilogiya yechimining asosiy badiiy ta’sirni yuzaga keltiradi.

Olingan natijalar o‘zbek adabiyotshunosligidagi kompozitsiya nazariyasi bilan ham uyg‘undir. K. Hamroyev sarlavha, epigraf, prolog va qistirma epizodni badiiy obraz tabiatini belgilovchi komponentlar qatorida sanaydi [Hamroyev, 2023: 8]. A. Ulug‘ov ham epigraf, asarning muqaddimasi va

tugallanishi masalalariga alohida to‘xtaladi [Ulug‘ov, 2017: 54–55]. Esher romanlarida bu komponentlarning barchasi mavjud. Biroq ular an‘anaviy nasrdagidan farqli ravishda asosan olam yaratish vazifasiga xizmat qiladi. Bu esa ilmiy fantastikaning kompozitsiya nazariyasiga qo‘shadigan o‘ziga xos hissasidir. Nihoyat, tadqiqot natijalari Esher ijodi haqidagi mavjud qarashlarni ham tuzatishga imkon beradi. Kitobxonlar nazdida yozuvchi asosan keskin voqealarga boy syujet ustasi sifatida tanilgan. Tahlil bu shiddat ortida puxta o‘ylangan kompozitsion tizim borligini ko‘rsatdi. Bob muqaddimasi kitobxonni tezkor voqealardan bir lahzaga to‘xtatadi, uni olam tarixi bilan tanishtiradi va keyingi bob voqealariga boshqacha nigoh bilan qarashga undaydi. Aynan shu tizim Esher turkumlarini voqealar zanjiridan yaxlit badiiy olamga aylantiradi.

Xulosa

Tadqiqot Nil Esherning Polity olamiga mansub to‘qqiz romanida kompozitsiya yozuvchi ijodining izchil va puxta o‘ylangan qatlami ekanini ko‘rsatdi. Tahlil markazida bob muqaddimasi tushunchasi turdi. Bu ishchi tushuncha J. Jenettning paratekst haqidagi, Y. Lotmanning ramka haqidagi va B. Uspenskiyning nuqtayi nazar haqidagi qarashlarini bob darajasiga ko‘chirish imkonini berdi.

Tahlil natijasida quyidagi xulosalarga kelindi. Birinchidan, Esher romanlarida bob muqaddimasining besh turi aniqlandi. Bular olam ichidagi manbaga nisbat berilgan epigraf, qoliplovchi ertak, tabiat tasviri, ensiklopediya maqolasi va ostonasiz tuzilishdir. To‘qqiz romanning sakkiztasida ostona tizimli ravishda qo‘llangan, “Shadow of the Scorpion” prekvelida esa uning vazifasini xotira bo‘laklari bajaradi. Ikkinchidan, pentalogiya va “Orbus” romanidagi 113 ta epigrafning birortasi ham real muallifga nisbat berilmagan. Gordon, Quince Guide, Heinlein, Jobsworth va Anonim muallif ovozlari xayoliy dunyoning ko‘p ovozli tarixini yaratadi. Bu epigraflar ekspozitsiya, turkum xotirasini saqlash, qahramonlarni mifologiyalashtirish, fosh qilishga tayyorlash va metafiktiv sharh vazifalarini bajaradi. Ularning umumiy xususiyati voqealarga kelajakdan turib qarashdir. Shu sababli ularni “kelajak solnomasi” deb atash mumkin. Uchinchidan, Spatterjay trilogiyasida bob muqaddimasi diegezisdan paratekstga bosqichma-bosqich ko‘chadi. “The Skinner” romanidagi hikoya qilingan lavhalar “The Voyage of the Sable Keech” romanida muallifsiz ensiklopediya maqolalariga, “Orbus” romanida esa aniq manbaga nisbat berilgan epigraflar va xotimaviy epigrafga aylanadi. Bu jarayon trilogiyaning pentalogiya olami bilan birlashuvini kompozitsiya darajasida ifodalaydi. To‘rtinchidan, Esher romanlarida ramka va halqa kompozitsiyasi keng qo‘llangan. “The Line of Polity” romanidagi ertak ramkasi epilogda asosiy syujet bilan o‘rin almashadi. “The Skinner”

romanidagi ekologik zanjir oxirgi bobda teskari tartibda takrorlanib, halqa hosil qiladi. “Gridlinked” romanining prologi va epilogi hamda uning markazidagi qistirma hikoya asarni ichma-ich joylashgan ramkalar tizimiga aylantiradi. Beshinchidan, pentalogiyada syujet chiziqlari soni izchil ortib boradi va kompozitsiya polifonik tus oladi. “Orbus” romanida begona mavjudot nuqtayi nazari teng huquqli chiziq sifatida beriladi, roman esa korpusda yagona bo‘lib, hozirgi zamonda yozilgan. Hozirgi zamondagi hikoya va o‘tgan zamondagi xotimaviy epigraf o‘rtasidagi keskinlik trilogiya yechimining asosiy badiiy effektini tashkil qiladi. Oltinchidan, Esher romanlarining yechimlari Lotman ta‘riflagan seriya matnlarining ochiq yechimi bilan mos keladi. Ular syujetni tugallaydi, biroq kelajakka yo‘l ochadi. “Line War” romanidagi ikki yuz yillik sakrash, “Orbus” xotimaviy epigrafi va “Shadow of the Scorpion” romanining so‘nggi jumlasi bunga yorqin misoldir.

Umuman olganda, Esher romanlarida kompozitsiya olam yaratishning asosiy vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bob muqaddimasi uydirma kelajakka tarixiy chuqurlik baxsh etadi, turli romanlarni yaxlit turkumga birlashtiradi va kitobxonni voqealarga ikki vaqt pozitsiyasidan turib qarashga undaydi. Bu xulosalar kitobxon qabulida shakllangan “keskin voqealarga boy syujet ustasi” obrazini to‘ldiradi va yozuvchini murakkab kompozitsion tizim yaratuvchisi sifatida ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Лотман Ю. М. Структура художественного текста // Об искусстве. — СПб.: Искусство-СПБ, 1998. — С. 14–285.

Успенский Б. А. Поэтика композиции. — СПб.: Азбука, 2000. — 352 с.

Begmatova S. M. Kadzuo Isiguro distopik romanlarining badiiy o‘ziga xosligi: filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. — Toshkent, 2025. — 175 b.

Butler A. M. Thirteen Ways of Looking at the British Boom // Science Fiction Studies. — 2003. — Vol. 30, No. 3. — P. 374–393.

Ekman S., Taylor A. I. Notes Toward a Critical Approach to Worlds and World-Building // Fafnir – Nordic Journal of Science Fiction and Fantasy Research. — 2016. — Vol. 3, No. 3. — P. 7–18.

Ekman S., Taylor A. I. Between World and Narrative: Fictional Epigraphs and Critical World-Building // Journal of the Fantastic in the Arts. — 2021. — Vol. 32, No. 2. — P. 245–265.

Freedman C. Critical Theory and Science Fiction. — Hanover; London: Wesleyan University Press, 2000. — 206 p.

Genette G. Paratexts: Thresholds of Interpretation / trans. by J. E. Lewin. — Cambridge: Cambridge University Press, 1997. — 427 p.

Gomel E. Science Fiction, Alien Encounters, and the Ethics of Posthumanism: Beyond the Golden Rule. — New York: Palgrave Macmillan, 2014. — 232 p.

Hamroyev K. Hikoyada badiiy kompozitsiya va poetik obraz munosabati // O‘zbekiston: til va madaniyat. — 2023. — J. 3, № 2. — B. 6–12.

The Space Opera Renaissance / ed. by D. G. Hartwell, K. Cramer. — New York: Tor, 2006. — 944 p.

Ko‘chimov U. Q. Fantastik asarlarda badiiy psixologizm konsepsiyasi: monografiya. — Toshkent: Alfraganus University, 2024. — 123 b.

Kraatila E. World-Building as Grand-Scale Speculation: Planetary, Cosmic and Conceptual Thought Experiments in Emmi Itäranta’s The Moonday Letters // Fafnir – Nordic Journal of Science Fiction and Fantasy Research. — 2023. — Vol. 9, No. 2. — P. 29–43.

Kronshage E. The Function of Poetic Epigraphs in George Eliot’s Daniel Deronda // Connotations. — 2013/2014. — Vol. 23, No. 2. — P. 230–259.

Matthews P. Transparent Minds in Science Fiction: An Introduction to Accounts of Alien, AI and Post-Human Consciousness. — Cambridge: Open Book Publishers, 2023. — 146 p. DOI: 10.11647/Obp.0348.

Norman J. S. The Culture of ‘The Culture’: Utopian Processes in Iain M. Banks’s Space Opera Series: PhD thesis. — London: Brunel University London, 2017. — 267 p.

Rajabova I. T. O‘zbek va rus hikoyachiligida syujet va kompozitsion yaxlitlik sintezi: filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. — Urganch, 2023.

Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017.

von Stackelberg P., McDowell A. What in the World? Storyworlds, Science Fiction, and Futures Studies // Journal of Futures Studies. — 2015. — Vol. 20, No. 2. — P. 25–46.

Wolf M. J. P. Building Imaginary Worlds: The Theory and History of Subcreation. — New York; London: Routledge, 2012. — 408 p.

References

Lotman, Yu. M. (1998). *Struktura hudojestvennogo teksta* [The structure of the artistic text], Ob iskusstve, Saint Petersburg, Iskusstvo-SPB, 14–285.

Uspenskiy, B. A. (2000). *Poetika kompozitsii* [Poetics of composition], Saint Petersburg, Azbuka, 352.

Begmatova, S. M. (2025). *Kadzuo Isiguro distopik romanlarining badiiy o'ziga xosligi* [Artistic specificity of Kazuo Ishiguro's dystopian novels], Tashkent, 175.

Butler, A. M. (2003). Thirteen Ways of Looking at the British Boom. *Science Fiction Studies*, 30(3), 374–393.

Ekman, S. & Taylor, A. I. (2016). Notes Toward a Critical Approach to Worlds and World-Building. *Fafnir – Nordic Journal of Science Fiction and Fantasy Research*, 3(3), 7–18.

Ekman, S. & Taylor, A. I. (2021). Between World and Narrative: Fictional Epigraphs and Critical World-Building. *Journal of the Fantastic in the Arts*, 32(2), 245–265.

Freedman, C. (2000). *Critical Theory and Science Fiction*, Hanover, London, Wesleyan University Press, 206.

Genette, G. (1997). *Paratexts: Thresholds of Interpretation* (J. E. Lewin, Trans.), Cambridge, Cambridge University Press, 427.

Gomel, E. (2014). *Science Fiction, Alien Encounters, and the Ethics of Posthumanism: Beyond the Golden Rule*, New York, Palgrave Macmillan, 232.

Hamroyev, K. (2023). Hikoyada badiiy kompozitsiya va poetik obraz munosabati [The relationship between artistic composition and poetic image in the story]. *O'zbekiston: til va madaniyat*, 3(2), 6–12.

Hartwell, D. G. & Cramer, K. (eds.) (2006). *The Space Opera Renaissance*, New York, Tor, 944.

Ko'chimov, U. Q. (2024). *Fantastik asarlarda badiiy psixologizm konsepsiyasi* [The concept of artistic psychologism in science fiction works], Tashkent, Alfraganus University, 123.

Kraatila, E. (2023). World-Building as Grand-Scale Speculation: Planetary, Cosmic and Conceptual Thought Experiments in Emmi Itäranta's The Moonday Letters. *Fafnir – Nordic Journal of Science Fiction and Fantasy Research*, 9(2), 29–43.

Kronshage, E. (2013/2014). The Function of Poetic Epigraphs in George Eliot's Daniel Deronda. *Connotations*, 23(2), 230–259.

Matthews, P. (2023). *Transparent Minds in Science Fiction: An Introduction to Accounts of Alien, AI and Post-Human Consciousness*, Cambridge, Open Book Publishers, 146. doi.org

Norman, J. S. (2017). *The Culture of 'The Culture': Utopian Processes in Iain M. Banks's Space Opera Series*, London, Brunel University London, 267.

Rajabova, I. T. (2023). *O'zbek va rus hikoyachiligida syujet va kompozitsion yaxlitlik sintezi* [Synthesis of plot and compositional integrity in Uzbek and Russian storytelling], Urganch.

Ulug'ov, A. (2017). *Adabiyotshunoslik nazariyasi* [Theory of literary criticism], Tashkent, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

von Stackelberg, P. & McDowell, A. (2015). What in the World? Storyworlds, Science Fiction, and Futures Studies. *Journal of Futures Studies*, 20(2), 25–46.

Wolf, M. J. P. (2012). *Building Imaginary Worlds: The Theory and History of Subcreation*, New York, London, Routledge, 408.

Badiiy adabiyotlar/ Fiction

Asher N. Gridlinked [Elektron resurs]. — London: Macmillan, 2001. — 373 p.
Asher N. The Skinner [Elektron resurs]. — London: Macmillan, 2002. — 552 p.
Asher N. The Line of Polity [Elektron resurs]. — London: Macmillan, 2003. — 510 p.
Asher N. Brass Man [Elektron resurs]. — London: Macmillan, 2005. — 466 p.
Asher N. Polity Agent [Elektron resurs]. — London: Macmillan, 2006. — 346 p.
Asher N. The Voyage of the Sable Keech [Elektron resurs]. — London: Macmillan, 2006. — 413 p.
Asher N. Line War [Elektron resurs]. — London: Macmillan, 2008. — 422 p.
Asher N. Shadow of the Scorpion [Elektron resurs]. — San Francisco: Night Shade Books, 2008. — 249 p.
Asher N. Orbus [Elektron resurs]. — London: Macmillan, 2009. — 346 p.